

2025-yil “25” “fevral” dagi 03-08-2024-2128
Startaplar ekotizimini rivojlantirish bo‘yicha
Muvofiqlashtiruvchi kengash yig‘ilishi
bayoniga 3-sonli ilova

Xorijiy vechur fondlarining investitsiyalarini jalb etgan startap loyihalarga investitsiya mablag‘larini ajratish tartibi to‘g‘risidagi NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi “Startap loyihalar va vechur moliyalashtirish ekotizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-357-sun qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, u 50 million AQSH dollaridan ortiq investitsiya aktivlarini boshqaradigan xorijiy vechur fondlarining investitsiyalarini jalb etgan startap loyihalarga investitsiya mablag‘larini ajratish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi tushunchalar qo‘llaniladi:

Dastur – raqamli texnologiyalar sohasidagi startaplarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan Raqamli startaplar dasturi;

Platforma – Startap loyihalar ekotizimi platformasi (www.startupbase.uz);

Direksiya – “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MChJ;

Vechur fondi – yuqori tavakkalchilikka ega loyihalarga mablag‘ kiritish uchun mo‘ljallangan investitsiya kompaniyasi;

Da‘vogar – Dastur ishtirokchisi bo‘lgan va 50 million AQSH dollaridan ortiq investitsiya mablag‘larini boshqaradigan xorijiy vechur fondlaridan sarmoya jalb qilgan startap-loyihalar;

Startap-loyiha – O‘zbekiston Respublikasida ro‘yxatdan o‘tgan, innovatsion mahsulotlar yoki xizmatlarni ishlab chiqish va joriy etishga qaratilgan yuridik shaxs;

Xorijiy vechur fondi – O‘zbekiston Respublikasi rezidenti hisoblanmagan hamda qiymati 50 million AQSH dollaridan ortiq investitsiya aktivlarini boshqaruvchi vechur fondi;

Investitsiya mablag‘lari – Vechur fondi tomonidan xorijiy vechur fondi ajratgan investitsiyalarga mutanosib ravishda, biroq 100 ming AQSH dollari ekvivalentidan oshmaydigan miqdorda ajratiladigan pul mablag‘lari;

Investitsiya qo‘mitasi – Venchur fondi qoshida tashkil etiladigan, uning investitsiya faoliyatiga oid masalalar yuzasidan jamoaviy qaror qabul qilish maqsadida tuzilgan maslahat-kengash organi.

II. Investitsiya mablag‘larini ajratish shartlari va tartibi

3. Investitsiya mablag‘larini ajratish qiymati 50 million AQSH dollaridan ortiq bo‘lgan investitsiya aktivlarini boshqaruvchi xorijiy venchur fondlaridan investitsiyalarni jalg qilgan da’vogarlarga tatbiq etiladi.

4. Investitsiya mablag‘lari Venchur fondi tomonidan ushbu Nizomga 1-ilovadagi sxemaga muvofiq ajratiladi.

5. Arizalarni dastlabki baholash va ko‘rib chiqish Venchur fondi tomonidan amalga oshiriladi.

6. Investitsiya mablag‘larini ajratish Investitsiya qo‘mitasining xulosasi asosida Venchur fondi tomonidan amalga oshiriladi.

7. Investitsiya qo‘mitasining tarkibi va ish tartibi Venchur fondining Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

“Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MChJ huzuridagi yuqori tavakkalchilikka ega loyihalarga mablag‘ kiritish uchun mo‘ljallangan investitsiya kompaniyasi Investitsiya qo‘mitasining tarkibi va ish tartibi Direksiya bilan kelishilgan holda belgilanadi.

8. Investitsiya mablag‘larini olish uchun da’vogarlar quyidagi mezonlarga javob berishi kerak:

- faoliyat davomiyligi – 6 oydan 7 yilgacha;
- kalender yildagi jami daromad – 10 milliard so‘mdan oshmasligi;
- inkubatsiya yoki akseleratsiya dasturlari muvaffaqiyatli yakunlanganligini tasdiqlovchi hujjatlarning mavjudligi;
- jadal rivojlanish va xorijiy bozorlarga chiqish imkoniyatiga ega raqamli texnologiyalarga asoslangan biznes modelining mavjudligi;
- platformada Dastur ishtirokchisi sifatida ro‘yxatdan o‘tganligi;
- raqamli texnologiyalar sohasida va boshqa yo‘nalishlarda minimal hayotiy mahsulot (MVP) mavjudligi;
- investitsiya aktivlari qiymati 50 million AQSH dollaridan ortiq bo‘lgan xorijiy venchur fondlarining investitsiyalari jalg etilganligi to‘g‘risidagi tasdiqning mavjudligi.

Ayrim hollarda, Investitsiya qo‘mitasining qaroriga ko‘ra, investitsiyalarning boshqa shakli qo‘llanilishi mumkin.

9. Venchur fondi ulushining qiymati xorijiy venchur fondining investitsiya shartnomasida keltirilgan baholash asosida aniqlanadi.

Shu bilan birga, Venchur fondi startap loyihani mustaqil baholash va shu asosda o‘z ulushi qiyomatini tuzatish huquqiga ega.

III. Investitsiya mablag‘larini olish uchun ariza berish tartibi

10. Investitsiya mablag‘larini olish uchun da‘vogar Direksiya tomonidan tasdiqlangan shaklga muvofiq platformada ariza topshirishi va unga quyidagi hujjatlarni ilova qilishi lozim:

- investitsiya kiritgan xorijiy vechur fondi haqidagi ma’lumotlar;
- xorijiy fondlardan investitsiya jalb qilinganligini tasdiqlovchi hujjat (bank ko‘chirmasi);
- xorijiy vechur fondi bilan tuzilgan investitsiya shartnomasi (kelishuvi);
- ariza topshirilgan paytda xorijiy vechur fondining 50 million AQSh dollaridan ortiq miqdordagi investitsiya aktivlarini tasdiqlovchi hujjat yoki ommaviy ishonchli manbalardan olingan ma’lumot.

11. Ariza dastlab Vechur fondi tomonidan baholanadi, so‘ngra Investitsiya qo‘mitasiga ko‘rib chiqish uchun taqdim etiladi.

IV. Arizalarni ko‘rib chiqish tartibi

12. Ariza ushbu Nizomning 1-ilovasiga muvofiq sxema asosida taqdim etilgan kundan boshlab 15 (o‘n besh) ish kuni ichida ko‘rib chiqiladi.

13. Vechur fondi ariza kelib tushgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida ilova qilingan hujjatlarning to‘g‘ri rasmiylashtirilganligini va to‘liqligini tekshiradi.

14. Dastlabki ko‘rib chiqish yakunlari bo‘yicha Vechur fondi arizani qabul qiladi va hujjatlarni Investitsiya qo‘mitasiga kiritadi.

Agar ushbu Nizom talablariga nomuvofiqlik aniqlansa, shuningdek, ishonchsiz (noto‘g‘ri) majburiy ma’lumotlar aniqlansa yoki ular mavjud bo‘lmasa, Vechur fondi arizani rad etishga va (yoki) qayta ishlash uchun ariza beruvchiga qaytarishga haqli. Bunda arizani takroran yuborish vaqtin qo‘rib chiqish muddatining boshlanishi hisoblanadi.

15. Investitsiya qo‘mitasi ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni 10 (o‘n) ish kuni ichida ko‘rib chiqadi.

16. Investitsiya qo‘mitasi arizani ko‘rib chiqish natijalariga asosan investitsiya mablag‘larini ajratishni tasdiqlash yoki rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Tasdiqlangan holda, da‘vogar investitsiya mablag‘larini olish uchun zarur bo‘lgan talablar ro‘yxati bilan birga xabarnoma oladi.

Rad etilgan holda esa da'vogarga rad etish sabablari ko'rsatilgan holda bildirishnomasi yuboriladi.

17. Investitsiya qo'mitasining qarorlari bayonnomasi shaklida rasmiylashtiriladi.

18. Zarurat tug'ilganda, Investitsiya qo'mitasi da'vogar bilan suhbat o'tkazishi va qo'shimcha ma'lumot hamda hujjarlar talab etishi mumkin.

19. Ariza tasdiqlangan taqdirda, da'vogarga investitsiyalash shakli va shartlari, shuningdek, har bir tomonning huquq va majburiyatları ko'rsatilgan holda investitsiya mablag'larini ajratish bo'yicha investitsiya shartnomasi yuboriladi.

Bunda, da'vogarga investitsiya shartnomasi imzolangan kundan boshlab bir kalendar yil ichida Venchur fondi investitsiyalari summasini, bunday bitim shartlari mavjud bo'lgan taqdirda, ustav kapitalidagi ulushga aylantirish majburiyatini oladi.

20. Investitsiya mablag'larini investitsiya shartnomasi imzolangan kundan boshlab 5 (besh) bank kuni ichida ariza beruvchining bank hisob raqamiga o'tkaziladi.

21. Arizalarni ko'rib chiqishda Venchur fondi va Investitsiya qo'mitasi ushbu Nizom hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari talablariga amal qiladi.

22. Ariza topshirish va uni ko'rib chiqish uchun haq olinmaydi.

V. Investitsiya mablag'larini berishni rad etish uchun asoslar

23. Investitsiya mablag'larini ajratishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'lishi mumkin:

- ushbu Nizomning 8-bandida ko'rsatilgan shartlarga mos kelmasligi;
- ushbu Nizom talablariga amal qilmasligi;
- ishonchsiz (noto'g'ri) ma'lumotlarni taqdim etishi yoki majburiy ma'lumotlarni taqdim etmasligi;
- jalb qilingan investitsiya mablag'laridan investitsion shartnomalarda belgilanmagan maqsadlarda foydalanganligi.

24. Investitsiya mablag'larini ajratish rad etilgan taqdirda, Venchur fondi da'vogarga rad etish sabablari ko'rsatgan holda xabarnoma yuboradi.

25. Investitsiya mablag'larini olish rad etilgan taqdirda, da'vogarga Investitsiya qo'mitasi tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish va arizani qaytadan topshirish huquqiga ega.

26. Investitsiya qo'mitasining qarorlari qat'iy hisoblanadi va ularga nisbatan e'tiroz bildirish mumkin emas.

VI. Yakuniy qoidalar

27. Ushbu Nizom taqdim etilayotgan investitsiya usuli mexanizmining samaradorligini tahlil qilish natijalariga ko‘ra qayta ko‘rib chiqilishi va takomillashtirilishi mumkin.

28. Venchur fondi quyidagi huquqlarni o‘zida saqlab qoladi:

- investitsiya mablag‘laridan foydalanish samaradorligini nazorat qilish va kuzatib borish;

- mazkur Nizom talablari buzilganligi aniqlangan taqdirda investitsiya mablag‘larini shartnomada belgilangan foizlar bilan birga qaytarilishini talab qilish;

- investitsiya shartnomasida belgilangan shartlar asosida investitsiyalar summasini majburiy tartibda ustav kapitalidagi ulushga aylantirish;

- qonun hujjatlari va investitsiya shartnomasida nazarda tutilgan boshqa choralarни ko‘rish.

29. Mazkur Nizom talablariga rioya etilishini nazorat qilish Direksiya tomonidan amalga oshiriladi.

Xorijiy venchur fondlarining investitsiyalarini jalg etgan startap loyihalarga investitsiya mablag'larini ajratish tartibi to'g'risidagi nizomga 1-ilova

Xorijiy venchur fondlarining investitsiyalarini jalg etgan startap loyihalarga investitsiya mablag'larini ajratish va arizalarni ko'rib chiqish SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Da'vogar	Platformada zarur hujjatlarni ilova qilgan holda ariza topshiradi.	Zarur bo'lgan hollarda
2-bosqich	Venchur fondi	<p>Arizaning to'g'ri rasmiylashtirilganligini va ilova qilingan hujjatlarning to'liqligini tekshiradi.</p> <p>a) Ushbu Nizom talablariga nomuvofiqlik aniqlanganda , shuningdek, majburiy ma'lumotlar ishonchhsiz (noto'g'ri) bo'lsa yoki mavjud bo'lmasa , arizani rad etadi yoki uni qayta ishslash uchun qaytaradi.</p> <p>Bunday holda, ko'rib chiqish muddatining boshlanishi arizaning qayta yuborilgan vaqtidan hisoblanadi.</p> <p>b) Ilva qilingan hujjatlar to'g'ri rasmiylashtirilgan va to'liq bo'lgan taqdirda, ariza va hujjatlarni Investitsiya qo'mitasiga yuboradi.</p>	5 (besh) ish kuni mobaynida
3-bosqich	Investitsiya qo'mitasi	<p>1. Ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni ko'rib chiqib, arizani rad etish yoki ma'qullash to'g'risida qaror qabul qiladi.</p> <p>2. Ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha da'vogarga platformada va elektron pochta orqali arizani ma'qullaganligi (investitsiya mablag'larini olish uchun zarur talablar ro'yxatini ko'rsatgan holda) yoki rad etganligi haqida xabarnoma yuboradi.</p>	10 (o'n) ish kuni mobaynida
4-bosqich	Venchur fondi	Ariza ma'qullanganda, da'vogar bilan investitsiya shartnomasi tuziladi va investitsiya mablag'larini da'vogarning bank hisobvarag'iga o'tkaziladi.	Investitsiya shartnomasi tuzilgan kundan boshlab 5 (besh) bank ish kuni ichida

